



# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogik, metodologik, innovatsion fan va ta'limga oid ilmiy jurnal

## №2-3/2023

Litsenziya raqami: №095310





**TAHRIR HAY'ATI:**

Qirg'izboyev Abdug'affor Karimjonovich	tarix fanlari doktori, professor	Bosh muharrir
Ibragimova Gulsanam Ne'matovna	pedagogika fanlari doktori(DSc), professor	Bosh muharrir o'rinbosari
Hamdamova Maxzuna Tursunovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	Bosh muharrir o'rinbosari
Jamoldinova Odinaxon Rasulovna	pedagogika fanlari doktori, professor	A'zo
Djamilova Nargiza Nuriddinovna	pedagogika fanlari doktori (DSc), professor	A'zo
Babayeva Dono Razzakovna	pedagogika fanlari nomzodi, professor	A'zo
Sadikova Shoista Akbarovna	pedagogika fanlari nomzodi, professor	A'zo
Jumanova Fotima Uralovna	pedagogika fanlari nomzodi, dotsent	A'zo
Shirbachevna Gulchexra Shakirovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Mirzayeva Farog'at Odiljonovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Bafayev Muxiddin Muxammadovich	psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Ne'matov Shuhrat Ergashovich	pedagogika fanlari nomzodi	A'zo
Ochilov Sevin Rajaboyevich	Qashqadaryo viloyat Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi Pedagoglarning bilimi hamda ko'nikmalarini baholash sho'basi metodisti	A'zo
Yuldasheva Dilnoza Bekmuradovna	Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Nurkeldiyeva Dilbar Axmedovna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	A'zo
Radjapova Zuxra Tirkashevna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo
Gaynazarova Gulbahor Abdullayevna	pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	A'zo

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti



# MUNDARIJA

Kelajak – biz tayyorlagan tarbiyachilarlar qo'lida (tarbiya tamoyillari) .....	5
Hamdamova Mahzuna Tursunovna	
Xorijiy tillarni o'qitishda innovatsion texnologiyalarni qo'llash usullari.....	9
Xudoyberdiyeva Zumrat Xudayberdiyevna	
Исследовательская деятельность дошкольников и проведение опытов .....	13
Садикова Д. Х., Будаева О. Р.	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarni aqliy, axloqiy, estetik rivojlanishida qo'g'irchoq teatrini tashkil etishning ahamiyati.....	16
Nurmatova Iroda Toxtasinovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ertaklarning ahamiyati .....	19
Choriyeva Durdona Anvarovna, Ahmadova Sabohat Olimjon qizi	
Организация STEAM – лаборатории в дошкольных образовательных организациях.....	23
Намазбаева Лола Закировна, Латипова Луиза Салохидиновна	
Bo'lajak tarbiyachilarni tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlash metodikasining mazmuni.....	27
Namazbayeva Lola Zakirovna, Shermaxmatova Saodat Shovkat qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda kommunikativ boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirish.....	33
Sharofiddinova Madinabonu	
Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish mexanizmini takomillashtirish .....	36
Mamatkulova Kimyoxon Abduljalilovna, Qodirova Nazokat Husniddin qizi	
Modern and High-Quality Methods in Schools.....	40
Niyazmetova Zukhrajon Sobirovna	
Особенности психолого-педагогической подготовки профессиональных спортсменов (каратеистов) ...	44
Дурдона Туракулова	
Теоретические аспекты формирования социальной адаптации подростков из неполных семей .....	48
Умарова Малика Хисабидиновна, Туймуродова Зухра Рустамовна	
Talaba qizlarning ijtimoiy faolligini oshirishda ta'lim texnologiyalardan foydalanish.....	52
Sotiboldiyeva Shaxrizoda Shuxratbek qizi	
Jadidchilik harakatining vujudga kelishi .....	55
Mirzayeva Faroxat Odiljonovna	
Ta'lim sifatini oshirishga oid ayrim mulohazalar.....	59
Voxidova Norposhshaxon Xabibullayevna, Obidxonova Robiya Abdushukur qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarda ijodkorlik faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish yo'llari.....	62
Adizova Gulzoda Mehriddinova, Yaxshilikova Hilola Ulig'bek qizi	
The Psychological Role of the Scientific Heritage Left by our Ancestors in the Formation of Moral and Educational Consciousness of the Youth .....	65
Ruziboyev Temur Bakhodirovich, Teshayev Sobit Sadikovich	
Boshlang'ich maktablarda o'quvchi va o'qituvchi munosabatlarida ikki tomonlama yondashuv .....	67
Xayitova Zilola Maxmudjonovna	
Hayot sifatini oshirish – davr talabi.....	70
Abdullayeva Ranajon Matyoqubovna	
Klasterli yondoshuv asosida maktabgacha ta'lim va pedagogika kollejlari integratsiyasini rivojlantirish .....	73
Rizayeva Gulnora Botirovna	
О специфике изучения проблемы адаптации студентов в высшем учебном заведении .....	80
Тиллашайхова Хосият Азаматовна	
Kasbiy kompetentlikning bugungi kun pedagogi imijida ahamiyati .....	84
Jo'rayeva Sohibjamol Norqobilovna	



O'smirlik davrida axloqiy o'zini o'zi anglashning xususiyatlari.....	87
Mamanazarov Uchqun Burxon o'g'li	
Экспериментальное изучение проявления невербального агрессивного поведения в системе “Руководитель - Подчиненный”.....	90
Назирова Лола Васижановна	
Shaxs o'zini o'zi baholashining salbiy va ijobiy jihatlari .....	94
Raxmonova Nigina Aminjonovna	
Ijtimoiy moslashuv va pedagogik tafakkurning rivojlanishida sifat jihatdan yangi bosqich .....	97
Ravshanova Nargiza Norboyevna, Avezberdiyeva N., Ne'matullayeva O., Abdullayeva N., Abduraxmonova S.	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pape-mash'e (G'ijimlangan qog'oz) usulida o'yinchoqlar va buyumlar yasash .....	100
Yaqubova Muhabbat Dilshodbekovna	
Tarbiyachi-pedagogning kompetentlik transformatsiyasi .....	105
Rasulxo'jayeva M. A., Urinova Z. O'.	
Uyushmagan yoshlarning huquqiy-psixologik muammolari.....	110
Kudratova Lola Ravshanovna	
Копинг-поведение студентов: стратегии преодоления стресса в образовательной среде .....	113
Аскарлова Гулрух Оринбосаровна	
Ривожланish markazlarida 6-7 yoshli bolalarni mustaqil faoliyatini tashkil etish.....	117
Махмутазимова Юлдуз Рахматовна, Амирова Муниса Юсуф қизи	
Проявление религиозной тематики в произведениях современных писателей Востока: Ф. Светлова “Отверзи мне двери” и Улугбека Хамдама “Бунт и смирение” .....	122
Чернова Татьяна Алексеевна	
Role of Innovation in Economic Development.....	125
Turdiyeva Nilufar Anvarovna	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda kitob va kitobxonlikning o'rni .....	128
Xasanova Nilufar Botirboyevna	
Ijtimoiy hamkorlik asosida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish .....	133
Artikbayeva Aziza Abrorovna	
O'smirlar agressiyasining shaxslilik determinantlari .....	136
To'laganova Ziyoda	
Maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda nutq o'stirish metodikasidan foydalanish, metodik tavsiyalar berishni takomillashtirish .....	141
Musulmonova Shaxnoza To'lqinovna	
Zahiriddin Muhammad Bobur haqida ertak .....	144
Rizayeva Xusniya Ubayevna	
Mehrjon bayrami.....	148
Uralova Momogul Karimberdinovna	
Bo'lajak tarbiyachilarni ta'lim-tarbiyaviy jarayonlarga kasbiy tayyorlash.....	151
Sadikova Shoista Akbarovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilingual rivojlanish.....	154
Sadikova Shoista Akbarovna, Tadjiyeva Muhabbat Xaydarovna, Nasreddinova Husnorabonu Jamoliddin qizi	
Влияние игровой деятельности в процесс изучения английского языка в доо.....	157
Эргашева Камола Алишеровна	
Modeling Methods in the Process of Forming Mathematical and Logical Concepts in Preschool Children .....	161
Gaukhar Djanpeisova Erkinona, Mamatqulova Nilufar	



# TA'LIM SIFATINI OSHIRISHGA OID AYRIM MULOHAZALAR



**Voxidova Norposhshaxon Xabibullayevna**  
 Toshkent davlat pedagogika universiteti  
 Pedagogika kafedrası professori, pedagogika fanlari doktori

**Obidxonova Robiya Abdushukur qizi**  
 Toshkent davlat pedagogika universiteti  
 Pedagogika kafedrası 1 bosqich magistranti

**Annotatsiya:** Maqolada baho, baholash masalalari, o'quv natijalarini tekshirish va baholash o'qituvchi faoliyatining muhim tarkibiy qismi ekanligi, bu jarayon pedagogdan yuksak mahorat talab etishi, baholashning: axborot, diagnostika, ta'limiy hamda tarbiyaviy funksiyalarini bilish, ta'lim sifatini oshirishdagi yondashuvlarning ahamiyatli jihatlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** yondashuv, baho, sifat, diagnostika, ta'lim, tarbiya, funksiya, ilm, fan, tizim, yangilik, yondashuv, jarayon, takomillashtirish, ta'lim, standart, faoliyat, innovatsiya, natija, innovatsion faoliyat.

**Abstract:** The article argues that assessment, assessment issues, verification and evaluation of educational results are an important component of a teacher's activity, this process requires the teacher to have high skills, knowledge of assessment: informational, diagnostic, educational and educational functions, approaches to improving the quality of education, important aspects are highlighted.

**Key words:** approach, assessment, quality, diagnostics, education, preparation, function, science, science, system, innovation, approach, process, improvement, education, standard, activity, innovation, result, innovative activity.

**Аннотация:** В статье утверждается, что оценивание, вопросы оценивания, проверка и оценка образовательных результатов являются важной составляющей деятельности учителя, этот процесс требует от педагога высоких навыков, знаний, выделены важные аспекты оценивания: информационных, диагностических, воспитательных функций, подходы к повышению качества образования.

**Ключевые слова:** подход, оценка, качество, диагностика, образование, подготовка, функция, наука, система, новшество, подход, процесс, совершенствование, образование, стандарт, деятельность, инновация, результат, инновационная деятельность.

## KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-son <sup>[1]</sup>, 2022-yil 21-iyundagi "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-289-son <sup>[2]</sup> qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 997-son <sup>[3]</sup> qarorlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda ta'lim sifatini oshirish masalasiga alohida e'tibor qaratish zarurligi ta'kidlangan. Ushbu talab yangilanayotgan O'zbekistonda ta'lim sohasidagi islohotlar jadal sur'atlar bilan amalga oshirishni talab etib, uning natijasida uzluksiz ta'lim tizimida, xususan, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, kadrlar malakasini oshirish va qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta'lim turlarida katta o'zgarishlar yuz bermoqda. Jahondagi globallashuv jarayonlari esa ilm-fan, texnika va texnologiyalarning jadallik bilan rivojlanayotganini ham e'tibordan chetda qoldirmaslik kerakligini taqozo etmoqda. Mazkur globallashtirish jarayonlari ta'lim jarayonlari, uni tashkil etish mazmuni, shakl, metodlari, natijalarni sarhisob qilish, baholash masalalariga yangi talablarni qo'yimoqda. Mazkur talab ta'lim tizimini tizimli ravishda islohotlarini hamda o'qitishning zamonaviy usul va vositalarini modernizatsiyalashni, ta'lim mazmunini takomillashtirish masalasi doimiy ravishda kunning dolzarb masalasi bo'lib qolaveradi.

## ASOSIY QISM

Ta'lim sifatini oshirish pedagoglardan kasbiy bilim va mahoratni egallaganlikni, davr bilan hamnafaslik, ta'lim-tarbiya jarayonlariga innovatsion ta'lim texnologiyalarini maqsadli joriy etishni, har bir dars samaradorligi, o'quvchilar tomonidan ilmiy bilimlarni o'zlashtirishlari uchun didaktik talablarga to'liq javob bergan holda tashkil etishni talab etadi.

Haqli savol tug'iladi. Jadal rivojlanish jarayonlarini boshdan kechirayotgan mamlakatimiz ta'lim tizimi rivojlangan davlatlar kabi globallashuv talablariga qanday javob bermoqda? Bugun ta'lim tizimida qanday muammolar bor? Kadrlar tayyorlash milliy tizimining globallashuv jarayonida bugungi kun talablarini qondirmayotganligi, ta'lim tizimida o'quv jarayonining moddiy-texnika va axborot bazasi takomiliga yetkazilmaganligi, yuksak malakali pedagog kadrlarning yetishmasligi, hozirgi zamon talablariga mos o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlar kamligi, fan, va ta'lim hisoblanadi. Bugun tahsil oluvchilarga beriladigan nazariy bilim, malakalar va amaliy ko'nikmalar berishga, shuningdek, ularning umumta'lim va kasbiy bilim, malaka hamda ko'nikmalarini shakllantirishga, qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan tizimli jarayon sifatida qaralayotganligini e'tiborga olsak, ularni baholash, ta'lim-tarbiya faoliyatiga yondashuvlar masalasi ham alohida e'tibor qaratilishi kerakligi, o'quvchilarni baholash, faoliyatda yondashuvlar mazmuni ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilishi zarur. Shu ma'noda biz baho, baholash, uning funksiyalari, unga yondashuvlar xususida fikr yuritdik.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

“Baho” so'zining lug'aviy ma'nosiga e'tibor qaratar ekanmiz, qomusiy lug'atlarda unga quyidagicha tasnif berilganligini ko'rishimiz mumkin. Baho berish (falsafada) — ijtimoiy hodisalar, inson faoliyati, xulqiga bo'lgan munosabat, ularning ahamiyatini, muayyan axloq me'yorlari va tamoyillariga mosligini ko'rsatish (ma'qullash yoki qoralash, rozi bo'lish, tanqid qilish va sh. k.). Insonning ijtimoiy mavqei, dunyoqarashi, madanny saviyasi, aqliy va axloqiy kamoloti bilan belgilanadi. Boshqa tomondan esa, qilingan harakat sabablari, vositalari va maqsadlarini, uning qanday sharoitda bajarilganligini, shaxs xulqidagi o'rnini hisobga olish bu shaxsga to'g'ri baho berishning zarur shartidir.

Baholash deganda biz bolaning hozirgi yutuqlarini (muvaffaqiyatsizliklarini), oldingi yutuqlari (muvaffaqiyatsizliklari) bilan taqqoslash jarayonini va o'quv natijalarini amaldagi o'quv standartlari tomonidan belgilangan me'yorlar bilan o'zaro bog'liqligini tushunamiz. Baholash mezonlari va shakllarini yaratish jarayoni o'quvchilar bilan birgalikda amalga oshiriladi va biz buni bolalarning qadr-qimmatini shakllantirishning bir usuli deb bilamiz.

O'quv-biluv jarayonining pirovard maqsadi baholanish va baholashdir. O'quvchilar nimani bilishlari va nimalarni bilmasliklarini aniqlashtirish, ularni o'zlashtirishdagi kamchiligini va nuqsonlarini aniqlash va keyingi yutuq tomonlariga suyanib, zaif tomonlarini to'ldirish va rivojlantirish hozirgi davrda didaktikaning asosiy talablaridandir.

O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish va baholash o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismidir va u tizimli, izchil va bardoshli ta'lim tamoyiliga muvofiq yil davomida muntazam ravishda amalga oshirilishi kerak. Bu bilimlarni tekshirish va baholashning har xil turlarini keltirib chiqaradi. Uning asosiylariga kundalik mashg'ulotlar davomida amalga oshiriladigan doimiy sinov va bilimlarni baholash; har bir o'quv choragi oxirida o'tkaziladigan chorak sinovi va bilimlarni baholash; bilimlarni yillik baholash, ya'ni yil davomida o'quvchilar faoliyatini baholash hamda bitiruv va davlat imtihonlari kiradi. O'quv natijalarini tekshirish va baholash o'qituvchi faoliyatining muhim tarkibiy qismidir. Zamonaviy didaktikada baholashning to'rtta asosiy funksiyasi mavjud: axborot, diagnostika, ta'limiy hamda tarbiyaviy.

- **Axborot (hisob va nazorat) funksiyasi** o'qituvchiga o'quv jarayoni davomida har bir o'quvchining rivojlanishini kuzatishga imkon beradigan o'quv natijalarini tizimli hisobga olishni nazarda tutadi.
- **Diagnostika (nazorat va tuzatish) funksiyasi** o'qituvchi va o'quvchilarning fikrlarini ta'minlash uchun zarurdir, shunda o'qituvchi o'qitish metodikasiga o'z vaqtida tuzatishlar kiritadi, o'quv vaqtini mavzuning alohida masalalari o'rtasida taqsimlaydi, maktab o'quvchilarining bilimlaridagi kamchiliklarni bartaraf etadi.
- **Nazoratning ta'limiy funksiyasi** o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash va chuqurlashtirish uchun muhimdir, chunki o'quvchilarning bilimini tekshirish jarayonida material takrorlanadi va o'qituvchi sinf e'tiborini o'quv materialidagi eng muhim narsalarga, fanning eng muhim mafkuraviy g'oyalari qaratadi, tipik tahlil qiladi, o'quvchilar tomonidan qilingan xatolarni bilib oladi.
- **Tarbiyaviy (motivatsion) funksiyasi** o'quvchilarni bilimlarini yanada o'rganish, takomillashtirish va chuqurlashtirishga undashda namoyon bo'ladi. Aniq belgilangan ta'lim maqsadlari va olingan natijalarni tekshirish va baholash imkoniyati o'rganishda motivatsiya bo'lib xizmat qiladi, o'quvchilarning o'zini o'zi boshqarish va o'zini o'zi qadrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi.



Ma'lumki, ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligi mazkur jarayon ishtirokchilarining faoliyatini tashkil etish metodlari va uni tashkil etish yo'nalishidagi asosiy yondashuvlarga bog'liq<sup>[4]</sup>.

Ta'lim sifatini oshirishda unga bo'ladigan yondashuvlarning alohida ahamiyatga ega ekanligini hisobga olgan holda, biz texnologik, motivatsion-maqsadli, qadriyatga asoslangan kompetensiyaviy, innovatsion yondashuvlar mazmuni, uni ta'lim sifatidagi ahamiyatini bayon etdik.

- **Ta'lim sifatini oshirishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuv.** Bu yondashuvda – ta'lim-tarbiya jarayonining xususiyatlari hisobga olinib, mazkur jarayonlarni tashkil etish muhiti, pedagogik shart-sharoitlar, ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarning mavjud va shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, qobiliyatini rivojlantirish, shaxs sifatida o'zini to'liq namoyon etish imkoniyatini yaratish, tafakkurini boyitish, dunyoqarashini kengaytirish nazarda tutaldi.
- **Texnologik yondashuv** – o'z navbatida maqsadlarga erishishni kafolatlab beruvchi jarayon bo'lib, faoliyat jarayonidagi turli nostandart vaziyatlarda to'g'ri yo'l topa olish, zaruriyat tug'ilganda faoliyat mazmuniga turli o'zgartirishlar kiritish, ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim omil bo'la oladi.
- **Motivatsion-maqsadli yondashuv** – turli xil ta'limiy yangiliklarning yaratilishi, amaliyotga tatbiq etilishi, ta'lim sifatini oshirishga doir ilg'or xorijiy yangiliklarni o'zlashtirish, milliy va umummadaniy qadriyatlar va an'analarni inobatga olish pedagogik jarayonda ulardan samarali va to'laqonli foydalana olishni, ta'limga oid eng so'nggi yangiliklar va innovatsiyalardan unumli foydalanishni nazarda tutadi.
- **Qadriyatga asoslangan yondashuv.** Ta'lim-tarbiya jarayonini mamlakatimizning boy tarixi, butun dunyo tan olgan milliy, ma'naviy va madaniy qadriyatlarimiz asosiga qurishni nazarda tutadi. Bunda ma'naviy-axloqiy omillar, inson sha'ni-shavkati, obro'-e'tibori, nafsoniyati, oriyati, iymon-vidjoni ulug'lanib kelinayotgan qadriyatlar ta'limiy-tarbiyaviy jarayonda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.
- **Kompetensiyaviy yondashuv.** Bu yondashuv asosini shaxsning - bilim, ko'nikma, mahorat va iste'dodni mehnat foydaliyatida qo'llay olishi tashkil etadi. Bunda pedagogning kasbiy faoliyatida o'zlashtirgan nazariy bilimlaridan samarali foydalanishi, yuqori darajadagi kasbiy mahorat, malaka hamda iqtidorini namoyish qila olishidir<sup>[5]</sup>. O'qitishda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limni amaliyotga joriy etish, ta'lim oluvchilarda egallagan bilimlarini hayotda qo'llay olish, kasb tanlash, mustaqil ta'lim olish, o'quv-bilish kompetensiyalarini rivojlantirishni talab etadi.
- **Innovatsion yondashuv.** Innovatsion yondashuvlar asosida ta'lim sifatini oshirish o'qituvchining o'z faoliyati tashkil etishda uning mazmun-mohiyatini anglaganligida, uni mazmun va sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish davr talabi ekanligini his qilishida namoyon bo'ladi.

## XULOSA

Demak, baholash funksiyalari hamda yondashuvlarni hisobga olish ta'lim sifatini oshirishga, bilim oluvchilarni ta'lim-tarbiya jarayonlarida faol ishtirok etishlariga yordam berar ekan, bu jarayonni tashkil etish tartiblarini ishlab chiqish zarur. Chunki, ta'lim sifatini oshirish jarayoni pedagogik ijodkorlikning asosiy maydoni bo'lib, uni tashkil qilish va baholashga to'g'ri, innovatsion yondashuv ta'lim oluvchilarni bilim olishga, mustaqillikka, ijodkorlikka, tashabbuskorlikka yo'naltiradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-noyabrdagi 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi PF-60-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 21-iyundagi Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida PQ-289-son qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida 997-son qarori.
4. Shodmonova Sh.S. Oliy o'quv yurtlari talabalarida mustaqillik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish (kasb ta'limi yo'nalishi misolida). Ped.fan.dok.diss. – T., 2010. – 338 b.
5. Muslimov N.A. va boshqalar. Pedagogning innovatsion faoliyatini rivojlantirish. O'quv-uslubiy majmua. – T.: 2019. – 39-41 bet.
6. Mirzayeva Faroxat Odiljonovna and Ubaydullayeva Dilobar Alisher qizi. "Oliy ta'lim tizimida ta'lim sifatini oshirishga qo'yilayotgan talablar" //Academic research in educational sciences 4.KSPI Conference 1 (2023): 121-125.



**Muharrir:** Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2023. № 2-3**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

“Maktabgacha va maktab ta’limi”  
jurnali

26.06.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan №C-5669245  
reestr raqami tartibi bo‘yicha  
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga  
ilmiy maqola, reklama materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: [sq143235@gmail.com](mailto:sq143235@gmail.com)

Bot: [@iqtisodiyot\\_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Тел.: 93 718 40 07

**Manzilimiz: Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**